

I.K. ABDIRIMOVA

AMALIY O'ZBEK (RUS) TILI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

I.K. ABDIRIMOVA

AMALIY O'ZBEK (RUS) TILI

*Oliy o'quv yurtlarining rus guruhleri talabalari uchun o'quv
qo'llanma*

Toshkent
«Renesans sari»
2024

lari
ing
ing
'lim
sini

lari
ing
ish
llat
ini

lly
tili
da.
ib,
tin
ng
igi
ini
sh
ati
di.
iv
ak
la
at
la
gi

ni
ni
y

UO‘K 811;37.01
KBK 74.268.7
A-14


Abdirimova I. Amaliy o‘zbek (rus) tili. O‘quv qo‘llanma. –
T.: “Renesans sari”, 2024. 286 b.

Ushbu o‘quv qo‘llanma oliy o‘quv yurtlarining rus guruhlarida talabalari uchun mo‘ljallangan. Unda o‘quv jarayonining nazariy, amaliy, ijodiy jihatlari to‘liq aks ettirilib, talabalarning o‘zbek tilidan egallagan bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash va yanada kengaytirish, tanlagan ixtisosligi doirasida davlat tilini puxta bilishlariga yordamlashish, nutqini kasbiy atamalar bilan boyitish, ularni davlat tilida ish yuritish asoslari bilan tanishtirish, sohaviy hujjatlar bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish, o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan o‘z mutaxassisligi bo‘yicha foydalanish, fikrni to‘g‘ri, aniq, mantiqli ifoda etishga o‘rganish nazarda tutilgan. Unda amaliy mashg‘ulotlarda foydalanish uchun zarur bo‘lgan materiallar, mashq, topshiriqlar o‘z aksini topgan.

UO‘K 811;37.01
KBK 74.268.7

O‘zbekiston Respublikasining Oliy ta‘lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 1-avgustdagi 277-sonli buyrug‘iga asosan o‘quv qo‘llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-9398-5-3



KIRISH

“Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori uzluksiz ta‘lim tizimini isloh etish, mamlakatimizning iqtisodiyotini yanada rivojlantirish maqsadida oily ta‘lim tizimi oldiga yuqori malakali kadrlar tayyorlash masalasini ko‘ndalang qo‘ydi.

“O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqida”gi Qonuni, “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qarori respublikamizda yashovchi boshqa millat fuqarolarining o‘zbek tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini yanada kuchaytirdi.

Oliy ta‘lim muassasalarida “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” talabiga muvofiq barcha fanlar qatori o‘zbek tili fanini o‘qitishda ham jiddiy o‘zgarishlar yuz bermoqda. O‘zbek tilini o‘qitishning mazmuni yanada takomillashtirilib, o‘zbek tilining ijtimoiy mavqei tobora ortib bormoqda. Lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosi va imlo qoidalarining joriy etilganligi, ish yuritishda to‘liq davlat tiliga o‘tilganligi barcha mutaxassislarning millatidan qat‘iy nazar, o‘zbek tilini puxta egallashlarini taqozo etmoqda. Davlat tilini o‘rganish mamlakatimizda yashovchi turli millat vakilining madaniyati darajasini ko‘rsatuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Bu borada ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan o‘quv muassasalari zimmasiga katta mas‘uliyat yuklanadi. Bo‘lajak mutaxassisning kasbiy layoqati va mahorati hozirgi davrda o‘z kasbi doirasida qo‘llanadigan soha terminlarini, davlat tilida ish yuritish malakasini, nutq madaniyati asoslari hamda notiqlik me‘yorlarini ham mukammal o‘rganishlari bugungi kun talabidir.

O‘zbek tilini tez fursatda o‘rganish maqsadida o‘zbek tilini o‘qitish tamoyillari, mazmuni soddalashtirildi. O‘zbek tilini o‘qitishda talabalarni shu til bo‘yicha egallanadigan nutqiy

faoliyatning asosiy to'rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish amallari bo'yicha fan yuzasidan malaka va ko'nikmalar me'yorini rivojlantirish, bunda o'qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi. Shularni nazarda tutgan holda o'quv qo'llanma nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan kommunikativ tamoyilga asoslanib tuzildi.

Oliy o'quv yurtlarining rus guruhi talabalari uchun mo'ljallangan ushbu qo'llanma "Amaliy o'zbek(rus) tili" fan dasturi asosida tuzilgan bo'lib, talabalarga shu kursdan amaliy bilim va malaka hosil qilish ko'nikmasini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. O'quv qo'llanmaning muhim jihatlaridan biri talabalarni davlat tilida ish yuritish asoslari bilan tanishtirish, ularda sohaviy hujjatlar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish, nutqini kasbiy atamalar bilan boyitish, maqsadida nazariy ma'lumotlar amaliy topshiriq va mavzuga oid savollar bilan mustahkamlanganligidir. Shuningdek, rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish mashqlariga ham keng o'rin berildi. Mashqlarda ko'proq ma'naviy-ma'rifiy mavzulardagi hamda milliy istiqlool g'oyalarini singdirishga qaratilgan matnlardan keng foydalanildi.

O'quv qo'llanma o'quv jarayoninig nazariy, amaliy, ijodiy jihatlarini to'liq aks ettirib, innovatsion texnologiyalar bilan boyitilgan. Bog'lanishli matnlarga talabalarni mustaqil ishlashga, ijodiy fikrlashga, qiyoslashga va xulosa chiqarishga o'rgatadigan savol va topshiriqlar qo'yildi. Bu talabalarining fanni qulay va oson o'zlashtirishlariga yordam beradi, o'z ustida ishlashlari uchun sharoit yaratadi. O'quv qo'llanmada talabalar mustaqil ta'lim olishlari uchun qo'shimcha adabiyotlar berildi.

PEDAGOGNING KASBIY NUTQI KASBIY MADANIYATNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA

Reja:

1. Kasbiy faoliyat.
2. Kasbiy madaniyat.
3. Kasbiy muloqot.
4. Kasbiy nutq tushunchasi.
5. Pedagogning kasbiy nutqi.

Tayanch so'z va tushunchalar

Kasbiy faoliyat, kasbiy madaniyat, kasbiy muloqot, davlat tili, bilim, ko'nikma, malaka, nutq, kompetensiya, adabiy til, til va nutq, kasbiy faoliyat, kasbiy madaniyat, kasbiy nutq.

Kasb - bu maxsus ta'lim va ish tajribasi natijasida nazariy bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalar majmuini o'zlashtiradigan va muayyan sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun jismoniy va aqliy qobiliyatlarni bu boradagi qonuniy huquqlarni ta'minlaydigan inson mehnat faoliyatining bir turi. Doimiy tayyorgarlik, bilim, ko'nikma va tajribani talab qiladigan shaxsning mehnat faoliyatidir.

Kasbiy faoliyat - bu o'z kasbida va ma'lum mutaxassislik sohadagi insonning asosiy faoliyatidir. Kasbiy faoliyat har doim ma'lum maqsadga erishish va muayyan vazifalarni hal qilishni ta'minlaydi.

Masalan, pedagogik faoliyatning maqsadi - yoshlarning ma'lum darajasini (umumiy, birlamchi, o'rta, yuqori) shakllantirishdan iborat. Pedagogik faoliyatning vazifalari esa, shaxsni tarbiyalash, va ko'p qirrali rivojlantirishdir.

Kasbiy madaniyat - bu shaxsning kasbiy muammolarni hal qilish usullarini ma'lum darajada egallashidir. O'qituvchi kasbiy madaniyati umumiy madaniyatining muhim qismi sifatida qaralib, u kasbiy sifatlar tizimi va kasbiy faoliyatning o'ziga

xos xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga shaxs tomonidan egallangan bilim va tajribaga asoslangan malakali harakatlar, yoki mehnat faoliyati mahsuli bo'lib, boshqalarda zavq uyg'otadi. Shaxsning kasbiy madaniyati bilim, ko'nikma, qobiliyat, axloqiy va estetik rivojlanish, dunyoqarash, odamlar bilan o'zaro munosabat usullari va shakllari, iste'dodning rivojlanish darajasi kabi faoliyatda amalga oshiriladigan mehnat va salohiyatni o'z ichiga oladi.

Pedagogik madaniyatda odob-axlog tushunchalari muhim o'rin tutadi. Bu, albatta, pedagogik ishonch jarayonining shakllanishi, natijasi va o'qituvchining o'z qiziqishlarini ko'proq aniqlash jarayonidir.

Muloqot - odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muloqot birgalikda faoliyat olib boruvchilar o'rtasida ma'lumot almashishni o'z ichiga oladi. Bunda munosabatlarning kommunikativ jihati hisobga olinadi.

Kasbiy muloqot - O'quv jarayonini tashkil etishda pedagogik muloqot madaniyati o'qituvchi va o'quvchilarning bevosita o'zaro munosabatlarini aniq maqsad sari yo'naltiruvchi kuchdir.

O'qituvchining ma'naviy darajasi va o'ziga xos xususiyatlariga mos ravishda har tomonlama to'g'ri tanlangan pedagogik muloqot madaniyati usuli quyidagi vazifalarni hal qilishga yordam beradi:

- muloqotda har bir o'quvchiga alohida e'tibor va g'amxo'rlik sinf jamoasi bilan umumiy muloqot jarayonini soddalashtiradi, o'qituvchining erkin pedagogik faoliyati uchun zamin tayyorlaydi, ziddiyatli vaziyatlarni osonlikcha hal qiladi;

- har bir o'quvchi bilan o'zaro muloqotni erkin muloqot asosida tashkil etish, uning yosh xususiyatlariga mos pedagogik-psixologik muloqot usullarini tanlash, uning ruhini bilishga, ichki dunyosiga "kirish"ga yo'l ochadi;

- pedagogik muloqotda o'qituvchining ma'naviy-axloqiy

me'yorlari muvaffaqiyat garovi bo'lib, ta'lim samaradorligini, muloqotning barcha bosqichlarida o'qituvchining o'z faoliyatidan qoniqishini oshiradi va xotirjamlikni ta'minlaydi.

Kasbiy nutq tushunchasi - zamonaviy mutaxassis nutq madaniyati ko'nikmalarini mukammal egallashi va kasbiy muloqotda lingvistik, kommunikativ va xulq-atvor qobiliyatlariga ega bo'lishi uchun quyidagi fazilatlarga ega bo'lishi kerak:

- adabiy til me'yorlarini bilish va ularni nutqda qo'llashning barqaror ko'nikmalari;

- nutqning aniqligi, izchilligi va ifodaliligini nazorat qilish qobiliyati;

- kasbiy terminologiyani bilish;

- professional nutq uslubiga ega bo'lish;

- maqsadni aniqlash va muloqot holatini tushunish qobiliyati;

- do'stona muloqot muhitini yaratish va saqlash qobiliyati;

- kasbiy faoliyat maqsadlariga muvofiq muloqotni yo'naltirish qobiliyati;

- odob-axloq qoidalarini bilish va amalda qo'llash qobiliyati.

Bu jarayonda shaxsning til vositalaridan foydalanish qobiliyati ham muhim bo'lib, nutqiy aloqada, nutq madaniyati qanchalik rivojlanganligi alohida o'rin tutadi.

"O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyatini shakllantirish muammosi kishilik jamiyatining ehtiyojlari va talablaridan kelib chiqqan holda hal qilinadi. Ta'lim amaliyotida ko'rgazmalilik azaldan eng zaruriy omil sifatida qarab kelinadi, shuning uchun o'qituvchi juda ko'p vaqtini turli ko'rgazmali qurollar tayyorlashga sarflaydi. Bu ma'qul, ammo, unutmaslik kerakki, nutqiy madaniyatni o'rgatish, chiroyli so'z zavqini o'stirish, umuman, til estetikasi tarbiyasida, asosiy, jonli ko'rgazmali qurol o'qituvchining o'zidir",¹ uning nutqidir, nutq ma'naviyatidir.

¹ N.Mahmudov. Ma'rifat manzillari. -T.: 1999. 52 - bet.